Yusupov Asror
Samarqand davlat chet tillar instituti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi

LINGVOKULTUROLOGIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA LEKSIKOGRAFIYANING QO‘LLANISH O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kun tilshunosligi va tarjimashunosligida dolzarb masala hisoblangan lingvokulturologik va frazeologik birliklar tarjimasi va ularni tarjima qilishda asosiy vosita sanaladigan leksikografik birliklarning o‘rni va ahamiyati haqida muhokama yuritiladi. Shuningdek, lingvokulturologik va frazeologik birliklar tarjimasida qo‘llaniladigan ba’zi usullarga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, lingvokulturologik lug‘at, lingvokulturologik yondashuv, madaniyatlararo muloqot, frazeologik lug‘at, ekvivalent.

Kirish.

Ingliz va o‘zbek tillari lingvokulturologik va frazeologik birliklarga boy bo‘lib, ular ham shaklan ham mazmunan xilma-xildir. Bu o‘z navbatida tilni o‘rganayotgan talabalar va tarjimonlar uchun qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tarjima nazariyasida frazeologik birliklar hisoblanadigan maqol, matal, idioma, iboralarni tarjima qilishga doir turli usullar tavsiya qilinadi.

Lingvokulturologiya va lingvomadaniy birliklar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarga oid etnolingvistika sohasida ish olib borgan Y.D.Apresyan, Y.A.Belchikov, A.Vejbitskaya, Y.M.Vereshaginlar lingvomadaniy birliklarning asliyat tilidan tarjima tiliga berilishi tarjimashunoslikning muammoli jikatlaridan biri ekanligini aytib o‘tganlar. Ularning fikrlariga mos tarzda leksikografiya sohasida ish olib borgan Y.D.Apresyan, V.V.Vinogradov, V.G.Gak, V.V.Dubichinskiy, Y.N.Karaulovlar ham lingvomadaniy birliklar lug‘atini yaratish uzoq vaqt va mashaqqatli mehnat talab qilishini alohida ta’kidlaganlar.

Asosiy qism.

O‘z faoliyatida tilning frazeologik yarusini va ularning tarjimasini o‘rgangan tarjimshunos olim G‘aybulla Salomov (olimning “Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir” monografiyasida boy va go‘zal o‘zbek tili rus tilidagi hamma, har qanday maqol va matallarni, idioma va so‘z o‘yinlarini to‘liq aks ettirishga qodirligi asoslangan) frazeologik birliklarni tarjima qilishning quyidagi 4 usulini ko‘rsatib o‘tadi:

Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi: 1. Asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o‘girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo‘yish; 3) frazeologizmni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi [1, 121]. Yuqoridagi prinsiplarning ishlash jarayoniga e’tibor beradigan bo‘lsak, leksikografiya bu uch prinsip mazmunini tashkil etishini ko‘rish mumkin. Chunki ekvivalent topish, muqobil variant izlash va so‘zma-so‘z tarjima qilish uchun ham, avvalo, lug‘at bilan ishlash zaruriyati yuzaga keladi va tarjimondan muammoli vaziyatga mos lug‘at topish talabini qo‘yadi. O‘z navbatida tarjimonning zaruriy lug‘atni to‘g‘ri ishlatishi asliyat matnidagi lingvomadaniy birliklarning tarjima tilida chiroyli jaranglashini ta’minlaydi.

Frazeologik birliklar tarjimasiga doir so‘nggi davrlarda yaratilgan ishlarda G‘.Salomov maktabi ruhi sezilib turadi, jumladan, N.Y.Turdiyeva va F.R.Halimovaning “Maqollarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning tarjima tilida ifodalanish usullari” nomli uslubiy qo‘llanmasida ham. Shuningdek, bu qo‘llanma maqollarning paydo bo‘lishi, ularning lingvistik tarkibiga doir nazariy ma’lumotlari va maqollarni o‘rganishga doir amaliy mashqlari bilan ahamiyatlidir.

O‘zbek tarjimashunosligida frazeologizmlar tarjimasiga bag‘ishlangan yetarlicha ilmiy ishlar, o‘quv qo‘llanmalar mavjud. K.M.Karomatova, H.S.Karomatovlar tomonidan tuzilgan “Proverbs-Maqollar-Пословицы” (Toshkent, “Mehnat” nashriyoti, 2000) lug‘at, N.Qambarovning “Universal lug‘at-ma’lumotnoma”si (Toshkent, “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2014) frazeologizmlar tarjimasi sohasida erishilgan katta yutuqlardan bo‘lsa-da, tarjima ilmi

bilan shug‘illanayotganlar oldida keng qamrovli inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha frazeologik lug‘at tuzish hozirgi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

A.V.Kunin tomonidan tuzilgan “Inglizcha-ruscha frazeologik lug‘at”ning kirish qismida frazeologik birliklarni tarjima qilishda lug‘atda qo‘llanilgan usullar haqida ma’lumot berilgan va bu quyidagi 6 usuldan iborat:

1. Ekvivalent, ya’ni tarjima tilida ingliz tilidagi iboraning ham mazmuni ham obrazini aks ettiradigan ibora topib tarjima qilish, masalan:

- as cold as ice – muzdek sovuq – холодный как лёд.

2. Analog, ya’ni ingliz tilidagi iboraga mazmunan muqobil, ammo obraz jihatidan farq qiladigan birlik topish, masalan:

- a drop in the bucket – dengizdan tomchi – капля в море.

3. Tasviriy tarjima, bunda inglizcha fraza tarjima tiliga frazeologik birlik bilan emas “erkin so‘zlar” (free word combination) yordamida tarjima qilinadi:

- cross the floor of the house – bir partiyadan boshqasiga o‘tmoq – перейти из одной партии в другую.

4. Antonim tarjima, ya’ni inkor shakldagi iborani tarjima tiliga bo‘lishli mazmun bilan yoki aksincha o‘girish:

- Don’t count your chickens before they are hatched – Jo‘jani kuzda sanaymiz – Цыплят по осени считают.

5. Kalkalash yoki so‘zma so‘z tarjima. Tarjimon inglizcha fikrlash, iboradagi obrazni ko‘rsatmoqchi bo‘lganda qo‘llaniladi:

- The moon is not seen when the sun shines – Quyosh nur sochayotganda oy ko‘rinmaydi – Когда светит солнце, луны не видно.

6. Aralash tarjima (Combined translation). Tarjima tilidagi analog inglizcha iboraning mazmunini to‘liq ifodalay olmasa yoki vaqt va makon bo‘yicha turli koloritga ega bo‘lganda

kalkalash yoki tasviriy tarjima qo‘llanilib taqqoslash uchun qavs ichida tarjima tilidagi analog beriladi:

- carry coals to Newcastle – Nyukaslga ko‘mir tashimoq, ya’ni biror narsa yetarli bo‘lgan joyga o‘sha narsani olib bormoq (o‘rmonga o‘tin bilan bormoq) – возить уголь в Ньюкасл, т.е. возить что-л. туда. где этого и так достаточно (ехать в Тулу со своим самоваром) [4, 17].

Yuqorida ko‘rsatilgan usullardan tarjimon tarjima qilinayotgan matn turi, uslubini aniqlab, milliy koloritni aks ettirishni hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Chunki anolog tarjima asliyat milliy koloritini yo‘qotsa, tasviriy tarjimada obraz, ta’sirchanlik yo‘qoladi. Tasviriy tarjima orqali “tarjimon frazeologizmning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi” [1, 121]. Tarjima tili sohiblariga kalkalash orqali qilingan tarjima tushunarsiz bo‘lishi mumkin, “Quyosh nur sochayotganda oy ko‘rinmaydi” kabi. Aralash tarjimadan badiiy matnda foydalanib bo‘lmaydi bu tarjima turi lug‘atlar, publisistik matnlarga xos. Eng afzal tarjima usullari ekvivalent va antonim tarjima hisoblansada doim ham inglizcha frazaga mos o‘zbekcha birlik topilavermaydi.

Frazeologik birliklar tarjimasiga doir muammoga mos yechim topish tarjimonning tajribasi va mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

Lug‘at g‘oyasi lingvokulturologiyada nazariya va metodologiyani yanada rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarda ishlatiladigan atamalar to‘plamidir. Demak, lug‘at ustida ishlashdan maqsad asosiy tushunchalarni tahlil qilish, ularni turdosh ilmiy fanlar bo‘yicha o‘xshash atamalarga nisbatan farqlash va eng muhimi, lingvokulturologik atamalarni tizimli tavsiflashdan iborat. V.N.Teliya tomonidan yangi ming yillik tilshunosligiga kiritilgan innovatsion, lingvokulturologik yondashuv turli ilmiy tushunchalarda bayon etilgan til, ong va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi klassik g‘oyaga asoslanadi [8, 13-24]. Lingvokulturologik yo‘nalish uchun eng muhim muammo - bu madaniy semantikaning lingvistik belgida timsolidir. Lingvokulturologiyaning asosiy atamalarining lug‘at tavsifida til va leksikografiya nazariyasidagi an’anaviy yondashuvlarga,

lingvistik atamalar lug‘atlarini tuzish amaliyotida ishlab chiqilgan usullarga tayanmaslik mumkin emas[7, 386].

Xulosa

Yuqoridagi fikr va yondashuvlardan ko‘rinib turibdiki, lingvokulturologik va frazeologik birliklar tarjimasida leksikografiyaning ahamiyati kun sayin oshib bormoqda. Chunki dunyo bo‘ylab madaniyatlar va tillarning rivoji tarjimashunoslik va tilshunoslikda leksikografiyaga bo‘lgan talabni oshirishda davom etadi. Bu o‘z navbatida tarjimon va tilshunoslardan o‘z sohasida chuqur izlanishlar qilishni va tadqiq etishni shart qilib qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR :

1. G‘.Salomov Tarjima nazariyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1983. -232 bet.
2. G‘.Salomov Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, metal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. –T.: “Fanlar Akademiyasi” nashriyoti, 1961. -159 bet.
3. Turdiyeva N.Y. va b q. Maqollarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning tarjima tilida ifodalanish usullari. Uslubiy qo‘llanma. –Samarqand: “SamDChTI” nashriyoti, 2017. -35b.
4. А.В. Кунин Англо-русский фразеологических словарь. –М.: Рус. яз., 1984. -944 с.
5. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. М.: УРСС, 2012. - 456 с
6. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. М.: Языки русской культуры, 1999. С. 13-24.
7. Asror, Y. (2022). TARJIMONLARDA LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(12), 138-140.

8. Rayimqul o'g'li, Y. A., & Mohzoda, X. (2022). LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TARJIMASIDA LUG ‘ATLARNING AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, *23*, 11-13.
9. Asror, Y. (2020). Methods of translation of socio-political texts (with the examples of English language). *Наука и образование сегодня*, (4 (51)), 35-38.
10. Кулдошов, У. (2021). Инглиз ва ўзбек тилларида конверсивлик ва антонимлик ҳодисаси. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 67-73.
11. Kuldoshov, U. U. (2022). MODERN TRANSLATION STUDIES: PROCEDURES, PRINCIPLES AND STRATEGIES. *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ*, 111.
12. Daminov Navruz, K. (2022). About Some Errors in the Process of Simultaneous Interpretation. *https://literature. academicjournal. io/index. php/literature/article/view/446*, *2*(8), 1-7.
13. Daminov, N. K. (2022). Using Interpreting Strategies in Teching Simultaneous Translation. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, *12*, 40-47.
14. Yusupov, O. Y. (2020). ETYMOLOGICAL AND PRO-ETYMOLOGICAL DOUBLETS IN ENGLISH. *Theoretical & Applied Science*, (2), 417-420.
15. Бахриева, Н. З., & Юсупов, О. Я. (2017). Деловое общение и диалог культур. In *ИННОВАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ* (pp. 10-13).
16. Юсупов, О. (2022). Хорижий тилларни ўқитишда таржиманинг аҳамияти. *Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, *1*(01), 9-11.
17. Yusupov, O. (2016). TESTING AS AN EFFECTIVE TOOL OF AN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM. In *Непрерывное образование в современном мире: история, проблемы, перспективы* (pp. 233-236).
18. Sherzodovich, A. S., & Jamshedovich, B. F. THE MAIN FEATURES OF THE TRANSLATION OF LITERARY TEXT. *Sciencepublish. org*, 16.